

Ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat va nodavlat sektorlarning hamkorligi

Malika Eraliyeva
malikaeraliyeva527@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholiga ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat organlarining vakolatlari, funksiya va vazifalari, shuningdek, mavjud muammoli vaziyatlar huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda nodavlat-notijorat tashkilotlarining rolini oshirish, tashabbuskor tadbirkorlik subyektlarini xayriya faoliyatlariga keng jalb etish masalalarini qonunchilikka kiritish taklif sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmat, pensiya, nodavlat-notijorat tashkilotlari, kam ta'minlangan oila, tadbirkorlik subyektlari

Cooperation between the state and non-state sectors in the provision of social assistance and social services

Malika Tohir-qizi Eraliyeva
malikaeraliyeva527@gmail.com
Tashkent State Law University

Abstract: This article analyzes the powers, functions and management of state bodies in providing social assistance and social assistance to the population, as well as the existing problematic legal analysis. To introduce into the legislation the issues of increasing the role of non-governmental organizations in providing social assistance and social assistance, and the wide involvement of enterprising business entities in charitable work as a proposal.

Keywords: social assistance, social service, non-governmental non-profit organizations, pensions, business entities

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratib berilmoqda va bu borada bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, yangicha tartiblar amaliyotga joriy etib kelinmoqda. Birgina ijtimoiy himoyani ta'minlovchi maxsus organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi fikrimizning yorqin dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 539-sonli qaroriga muvofiq, 2023-yil 15-oktabrdan boshlab “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar ko‘rsatadigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ro‘yxati tasdiqlanishi belgilangan. Ushbu ro‘yxat asosida bugungi kunda har bitta mahallalarga ijtimoiy xodimlar biriktirilgan bo‘lib, ular fuqarolar bilan bevosita ish olib borib, ularning ijtimoiy himoyasiga doir masalalarda yordam berib, ishsizlik, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik kabi holatda bo‘lgan fuqarolarga ularga nisbatan qonunchilikda qanday imtiyozlar mavjudligini, ulardan foydalanish tartibini bevosita tushuntirib hal qilib berishlari mumkin. Bundan tashqari, o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarning yolg‘iz yashaganligi va uy ishlarini bajarishga imkoniyati mavjud emasligi tufayli ularga “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlari tomonidan assistentlarning biriktirilishi, haftada bir marotaba kelib, ushbu shaxslarga uy yumushlarida yordam berishlari ushbu islohotlarning samarasidan biridir.

Bugungi kunda ijtimoiy xodimlar nafaqat turli xil xizmatlarni ko‘rsatadi, balki, moddiy yordamga muhtoj, dori-darmon sotib olishga sharoiti yo‘q fuqarolar uchun ham “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan pul ajratilishi jarayonida qatnasha oladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temir daftar” orqali ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 313-sonli qarorida “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan ko‘rsatiladigan yordamlar fuqarolarning og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish va shunday vaziyatga tushganlarni og‘ir vaziyatdan chiqarish maqsadida tashkil etilganligi belgilangan. Shuningdek, ushbu qarorga muvofiq, “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan quyidagi dasturlar bo‘yicha yordam ko‘rsatiladi:

- *og‘ir va uzoq vaqt davolanish talab etiladigan kasallikka chalingan oilalarga yordam ko‘rsatish dasturi;*
- *birinchi darajali ehtiyojlarni qoplashga ko‘maklashish dasturi;*
- *uy-joy sharoitiga ega bo‘lmagan oilalarni qo‘llab-quvvatlash dasturi;*
- *isitish ta‘minotidan uzilgan oilalarga yordam ko‘rsatish dasturi.*

Vazirlar Mahkamasining 313-sonli qaroriga muvofiq, har oyning 5-sanasiga qadar tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan oldingi oyda “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasida shakllangan mablag‘larni quyidagi ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda, mutanosib ravishda tumanlar (shaharlar)dagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha taqsimlaydi:

- 25 foizi - mahalla fuqarolar yig‘inidagi aholi soni;
- 25 foizi - mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar soni;

- 25 foizi - mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar soni;
- 25 foizi - mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi “Temir daftar”ga kiritilgan oilalar soni.

Bundan tashqari, mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasida ochilgan maxsus hisobvaraqda jamlanadi hamda har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan quyidagi ko‘rsatkichlarga muvofiq taqdim etiladigan foizlarga asosan tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armalariga avtomatik ravishda taqsimlanadi:

- 25 foizi - tumanlar (shaharlar)dagi aholi soni;
- 25 foizi - tumanlar (shaharlar)da yashovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar soni;
- 25 foizi - “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar soni;
- 25 foizi - “Temir daftar”ga kiritilgan oilalar soniga qarab.

Demak, yuqorida biz “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasining mablag‘lari qanday tartibda taqsimlanishini ko‘rib chiqdik. Endi esa ushbu jamg‘armadan mablag‘larni qanday olish mumkinligiga to‘xtalamiz. Bu bo‘yicha fuqarolar ijtimoiy xodimga murojaat qilishi yoki ijtimoiy xodimning xonadonma-xonadon yurishi natijasida yordam puli berilishi mumkin. Birinchi bosqichda “Inson” ijtimoiy yordam ko‘satish markazi manfaatdor shaxsga ijtimoiy xodimning keys-menejment asosida o‘rganilgan ma’lumotlari yuzasidan tavsiyanoma berish masalasini hal etadi. Shundan so‘ng, ushbu tavsiyanoma “Mahalla yettiligi” tomonidan ko‘rib chiqiladi va ovozga qo‘yiladi, agar ovozlar soni teng kelib qoladigan bo‘lsa, ijtimoiy xodimning ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Shundan so‘ng, “Mahalla yettiligi” vakillari tomonidan berilgan ovozlarga asosan qaror qabul qilish tartibi Agentlik tomonidan belgilanadi. Tuman (shahar) hokimliklari “Mahalla yettiligi”ning ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi qarorlarining ushbu mahalla fuqarolar yig‘inlariga ajratilgan mablag‘lar doirasida ko‘pi bilan bir oy muddatda ijrosini ta’minlaydi. Zarur hollarda, “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan mahalla fuqarolar yig‘inlari uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan bir kun ichida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga belgilangan tartibda yordam ko‘rsatilishi qarorda keltirib o‘tilgan.

Yuqorida davlat organlari tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga nisbatan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmat va ijtimoiy yordamlar haqida ma’lumot berib o‘tdik. Ulardan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ushbu yo‘nalishda davlat organlari tomonidan barcha yordam va xizmatlar ko‘rsatib kelinmoqda va berilayotgan moddiy yordamning aksariyat qismi ham davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi. Ammo mamlakatimiz chinakam kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatni sari konsepsiysi asosida o‘z faoliyatini amalga oshirar ekan, fuqarolik jamiyatni institutlarining roli ham yuqori

bo‘lishi, nodavlat-notijorat tashkilotlari ham ijtimoiy himoya yo‘nalishida yangicha loyihalarni olib chiqishi talab etiladi. Bundan tashqari, tashabbuskor tadbirkorlik subyektlari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga xayriya faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun qonunchilikda imtiyozlarni joriy etishni taqozo qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatning chinakam taraqqiy etishida faqatgina davlat organlari emas, balki nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institatlari ham faol ishtirok etishlari lozim. Bu bo‘yicha davlat organlari ham NNTlar bilan ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan grant loyihalari uchun tanlovlardan tashkil etishi bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 30.04.2023.
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ahолига ижтимоий хизматлар ва юрдамлар ко‘рсатиш тизимини янада тақомиллаштириш чора-тадбирлари то‘ғ‘рисида”ги 319-сонли qarori. 28.09.2023. <https://lex.uz/ru/docs/-6624639>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ахолинг ижтимоий himoya olish huquqlarini ta’minalash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘ғ‘рисида” 539-sonli qarori. 14.10.2023. <https://lex.uz/docs/-6636282#-6636469>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Темир дафтар” orqali ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda “Саховат ва ко‘мак” jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘ғ‘рисида” 313-sonli qarori. 31.05.2024. <https://lex.uz/docs/-6973951>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘ғ‘рисида”ги 687-sonli qarori. 28.12.2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6720230>